

MILYI GVARDIYA VA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING
VOYAGA YETMAGANLAR NAZORATSIZLIGI VA HUQUQBUZARLIGINI
OLDINI OLISH BO‘YICHA VAZIFALARI

G‘ozibekov To‘lqin Habibullaevich

Maxsus kasbiy fanlar kafedrasи

dotsenti, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada: voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi barvaqt oldini olish va profilaktik ishlar, hamkorlik va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalar ular bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbat hamda ijtimoiy moslashtirish bilan bog‘liq faoliyati bilan bog‘liq so‘zlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Voyaga yetmaganlar, nizoli oila, Ijtimoiy jihat, xavfli ahvol, profilaktik suhbat, yakka tartib, jamoatchilik, hamkorlik, ota-onalik yoki ota-onalik o‘rnini bosuvchi shaxs, voyaga yetmagan, xulq-atvor.

O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010 yil 29 sentabr qonuni¹ voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda, xususan, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – № 39. – 341-м.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Davlat kishilarga, ayniqsa, yordamga muhtoj bo‘lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, yetimlarga, bolalar, o‘quvchilar, nafaqaxo‘rlar va nogironlar, yolg‘iz onalar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishi kerak»² «Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilish kerak»

Bugungi shiddatli texnika rivojlangan davrida, globallashuv zamonda farzandlarning sog‘-omon yurishlarini ta’minlashning o‘zagina yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonga xos va mos yuksak ma’rifatli, bunyodkor, shijoatli jasur, mard avlodni tayyorlash zarurati jamiyat, eng avvalo, oila instituti zimmasiga g‘oyat katta mas’uliyat yuklamoqda. Farzandning dunyoqarashi, maslak, qadriyat, e’tiqodlari asosan oila bag‘rida tarkib topar ekan, oilaga haqiqiy ma’naviyat qo‘rg‘oni, deya ta’rif berildi. Har bir bola, shu jumladan yetim yoki qarovsiz bolalarning huquqlarini himoya qilish, farovonligini ta’minlash, ularning o‘sishi va rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Vaholanki, voyaga yetmaganlar qarovsizligi va ular orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish amaldagi qonunlarda O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunida voyaga yetmagan huquqbuzarlarga maxsus tarbiya muassasalarida ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi, ozodlikdan mahrum etish va maxsus muassasalardan qaytgan yosh fuqarolarni ijtimoiy jihatdan tiklash yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyatining asosiy yo‘nalishri ekanligi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ichki ishlar idoralarini isloh qilish yuzasidan qabul qilgan normativ hujjatlarida yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etishga moyil bo‘lganlarni aniqlashda profilaktik ishlarning samaradorligini ta’minlash, jazoni ijro etish joylaridan ozod etilgan yoshlarni ishga joylashtirish, mahalla huquqtartibod maskanlari va tayanch punktlarini yoshlarning mazmunli dam olish joylari deb hisoblash, ichki ishlar organlari tayanch punktlarining infratuzilmalarini takomillashtirishda yoshlar o‘rtasida tashkiliy-tarbiyaviy va ommaviy-sport ishlarni rivojlanтиrishni ta’minlash Milliy gvardiya va ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ekanligi, O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida³ ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan, muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган, jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan, yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, deya e’tirof etilgan.

² 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
28.07.2024

³ Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги «Бола хуқуқ ларининг кафолатлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – 2008. – № 1. – 1-м.; – 2009.– № 12. – 471-м.

Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda yer kurasida O‘zbekiston Respublikasidagi tinchlik va osoyishtalikni ko‘rolmaydigan g‘araz maqsadli «kuchlar» borligini unitmasligimiz kerak. 2022 yil Qaroqolpog‘iston Respublikasidagi salbiy holatlar va bunda yovuz kuchlarni jamiyatimiz tinchligi va osoyishtaligiga, milliy qadriyatlarimizga tahdid solishga harakat qilishga uringanligi har bir fuqaromizni ogoh bo‘lish, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, shu jumladan Milliy Gvardiya va Ichki ishlar idoralaridan o‘z faoliyatlarini muntazam takomillashtirib borish hamda yoshlar bilan muntazam keng jamoatchilik vakillari bilan yanada yaqin hamkorlikda ishslash lozimligini taqozo etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan respublikamizning barcha qishloqlarida, ovullarida va eng chekka aholi yashaydigan joylarida ham xalq bilan hamnafas, uning dardi, g‘ami va tashvishlari bilan yashaydigan profilaktika inspektorlari va mahalla yetiliqi faoliyat ko‘rsatishiga asos solindi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarligining oldini olishda, ularning huquqiy savodxonligini yuksaltirishda, shuningdek mazkur vazifalarni amalga oshirishda huquqni muxofaza qilish organlari va jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etishda Milliy gvardiya va Ichki ishlar idoralari, xususan profilaktika xizmatining vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bola dastlab tarbiyani qaerdan oladi, albatta u oiladan va ota-onadan, ularning samimiyligi bir-birlariga muloqatga kirishishlarini ko‘rish va eshitish bilan ulardan o‘rnak ola boshlaydi.

Islohotlar natijasida bugungi kunda yangidan shakllangan Milliy gvardiyaga berilgan inspektor psixolog shtatlari:

- ✓ aholini jinoyatchilikdan himoya qilishni bevosita doimiy va uzluksiz ravishda ularning yashash joylarida amalga oshirish;
- ✓ muayyan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etishning asosiy sababi bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, oila-turmushdagi muammolarni bamaslahat o‘zaro hamkorlikda hal etish;
- ✓ hayotda adashgan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmayotgan, yordamga muhtoj fuqarolarga, ayniqsa, yoshlarga amaliy yordam ko‘rsata olish;
- ✓ ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari va huquqni muhofaza qilish organlari hozirda jamiyat uchun eng xavfli bo‘lgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, shu jumladan ekstremistik oqim a’zolari haqida ushbu xizmat orqali yetarli ma’lumotlarni o‘z vaqtida ola bilish;
- ✓ jinoyatlarning oldini olishda eskicha «jinoyat sodir etilgandan keyin sodir etgan shaxsni fosh etish» usulidan voz kechib, yangicha «hayot tarzi, yurish-turishidan jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan shaxslarni aniqlash, birinchi navbatda, ularning jinoyat sodir etishiga yo‘l qo‘ymaslik, agarda ular jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsalar, ularni fosh etish» usulini qo‘llash;
- ✓ jinoyatlarning oldini olishda jamoatchilikning bevosita ishtirot etishiga keng yo‘l ochib berish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar o‘z samaralarini berayotgan bo‘lsada, biroq voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etilmoqda.

Olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinoiy yo‘lni tanlashlariga quyidagi asosiy omillar – ularning bo‘sh vaqlarda nazoratsiz qolayotganlari, ularning ma’lum bir qismining hech joyda ishlamasdan va o‘qimasdan yurishlari, zo‘ravonlikni, jinoiy yo‘l bilan boylik orttirishni, ma’naviy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi filmlarni tomosha qilishlari hamda jinoyat olami vakillarining hayot tarziga taqlid qilishlari ta’sir qilmoqda.

Shuningdek, ota-onalar tomonidan bolalarga olib berilayotgan qo‘l aloqa vositalaridan samarali foydalanmayotganliklari bolalar telefonni emas telefon bolalarni tanlamoqda. Aksariyat bolalar darsda berilgan mavzular yoki uy vazifasini bajarishni emas, aksincha turli o‘yinlar o‘ynash bilan kunlarini o‘tkazmoqda.

Ushbu kriminogen omillar ta’sirining kuchayishi quyidagilar bilan bog‘liq:

- bolaning maktabdan keyin soat 14 dan 19 gacha bo‘sh bo‘lishi va ko‘pincha nazoratsiz qolishi, turli internet tarmoqlariga kirishi va behayo film va jangari o‘yinlarni ko‘rishi (ko‘proq shaharlarda). Bunday holat voyaga yetmaganning duch kelgan shaxslar bilan tanishishiga, shuningdek jinoyat sodir etishga moyil shaxs yoki guruhrilar ta’siriga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda;

- ko‘plab ota-onalarning asosiy vaqtłari mehnat va jamoat ishlariga sarflanib, bola tarbiyasiga etibor qaratmasliklari;

- bola tarbiyasiga befarqlik va uning xatti-harakatlarini nazorat qilmasliklari;

- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun to‘garaklar barcha mahalalarda birdek tashkil etilmaganligi;

- aholi turar joylarida bolalar qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat tuzilmalarining oila va maktab bilan hamkorligining samarali tashkil etilmaganligii va h.k.

Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbazarligining oldini olish Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari tomonidan quyidagi vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlarini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek o‘quv muassasalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishni;

- ommaviy axborot vositalari ko‘magidan foydalangan holda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiliginig oldini olishga doir targ‘ibot va tashviqot ishlarining muntazam ravishda olib borilishini ta’minalash;

- qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularga tegishli yordamlarni berishda ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari bilan hamkorlikni kuchaytirishni;

- har bir mahallada voyaga yetmaganlarni muqaddam sudlangan shaxslar, jinoiy guruhrilar hamda ekstremistik g‘oyalar ta’sirlaridan himoya qilishning tizimini yaratishni;

- har bir ma’muriy hududda spirtli ichimliklar bilan savdo qilish qoidalariga, xususan voyaga yetmaganlarga ularni sotish taqiqiga qat’iy rioya qilish ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishni;

- militsiya tayanch punktlarida yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlarda huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini yaratishni;
- farzandlari tarbiyasiga yetarli e’tibor bermayotgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyatini oshirishni;
- notinch va nosog‘lom muhitli oilalarga zaruriy moddiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy yordamlarni o‘z vaqtida ko‘rsatishni;
- notinch va nosog‘lom muhitli oilalarni o‘z vaqtida aniqlash va ular bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishda jamoatchilik bilan hamkorlikni samarali tashkil etishni;
- farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan janjalkash oilalarni aniqlash va ularni profilaktik hisobga olishni;
- qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni;
- fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish, aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot va tashviqot olib borish orqali jinoyatlarning oldini olish borasidagi profilaktik ishlarni amalga oshirishni;
- bolalarni sportga, kasb o‘rganishga, iqtidorini jamiyat uchun foydali ishlarga jalb etib ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;
- Telefon aloqa vositalaridan foydalanish tartibiga alohida ahamiyat berishlikni;
- Janubiy Koreya davlati misolida bolalar bilan ishslash va ularga telefondan foydalanish tartibi metodini olib kirishlikni tavsiya etaman.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar idolarining amaliy tajribasidan ma’lumki, voyaga yetmaganlar qarovsizligi va jinoyatlarining oldini olishda profilaktika chora-tadbirlarini samarali tashkil etish va amalga oshirish o‘zining ijobiy natijasini bergen. Shuni inobatga olgan holda, profilaktika inspektorlari xizmat ko‘rsatilayotgan hududlarda voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi operativ holatlar tahlillarini muntazam ravishda o‘tkazib borishlari, ya’ni voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining (holati, darajalari, tuzilishi va dinamikasini) turlari, sodir etilish joylari, usullari va vaqtłari, tajovuz predmetlari, shuningdek jinsi va yoshi bo‘yicha o‘rganish orqali ular nazoratsizligi va huquqbazarligining oldini olish bo‘yicha faoliyatni samarali tashkil etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1.–T: “O‘zbekiston” NMIU, 2018., 591-b.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimzning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- Toshkent - «O‘zbekiston», - 2018. – 512 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2023. – Lex.uz.
5. 7.01.2008 yildagi “Bola huquqlari kafolotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

6. 2010 yil 29 sentabrdagi «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 263-son qonuni .
7. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam kursatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 3 avgustdagи 490-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagи “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-sonli Qonuni.
10. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizomni va bolalar masalalari bo‘yicha qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari to‘g‘risida”gi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida 2022 yil 6 iyuldagи 363-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2021 yil 31 avgust kungi “Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 318-sonli buyrug‘i
12. Sh.Odilxonovna. “Ommaviy madaniyat” tahdidi. –T., “Muharrir nashriyoti” – 2010. 18-b.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi «Bola huquq larining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2008. – № 1. – 1-m.; – 2009.– № 12. – 471-m
14. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi 28.07.2024.